
Bugunning mavzusi: Shaxsiy javobgarlik, mas'uliyat va daxldorlik

Viloyatdagi har bir fermer xo'jaligi, tomorqa va dehqon xo'jaligi egalari bu boradagi muhim vazifalarini teran anglab yetmog'i zarur

Ayni kunlarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan hayotbaxsh islohotlardan ko'zlangan bosh maqsad har bir hamyurtimizni o'z hayotidan rozi bo'lishiga erishish, aholi farovonligini oshirish, hududlar obodligini ta'minlashga qaratilgani bilan e'tiborga sazovordir. Bu esa "Odamlar islohotlar samarasini uzoq kelajakda emas, balki bugun o'z hayoti, oilasi misolida ko'rish kerak" degan ezgu tashabbusni ro'yobga chiqarishni nazarda tutadi.

Bunday qamrovi keng o'zgarishlarni hayotga tatbiq etish, eng avvalo, odamlarning hayotga bo'lgan munosabati, tafakkur tarzini o'zgartirishni taqozo etadi. Har bir oila tadbirkor bo'lishi kerak, degan ezgu maqsad zamirida ham hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish jarayonida faollik va fidoyilik ko'rsatishiga erishishdan iboratdir. Shu bois har bir oilaning o'z tadbikorligini yo'lga qo'yishi, tomorqa va dehqon xo'jaliklaridan samarali foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Bugun dehqon bo'lsang, bilimli bo'! - degan hayotiy aqidaga qat'iy amal qilgan holda fermer va dehqon xo'jaliklari, shaxsiy tomorqa er egalari o'z ishiga zamonaviy mezonlar asosida yondoshib, faoliyatiga innovatsion g'oya va texnologiyalarini keng joriy etishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 18 mart kungi "Dehqon xo'jaliklari va tomorqa er uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida amaliyotda foydalanish uchun Farg'ona viloyati hokimligining Yo'riqnomasi ishlab chiqildi. Farg'ona viloyati bo'yicha dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalarning erlaridan samarali foydalanishni tashkil qilish maqsadida shahar-tumanlarda doimiy ishlovchi 194 ta shtablar faoliyati yo'lga qo'yildi. Shahar va tumanlardagi to'rtta sektor bo'yicha tashkil qilingan ishchi guruhlariga qariyb 2300 nafar malakali mutaxassislar jalb etildi.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan joriy yilning 23 mart kuni o'tkazilgan selektor yig'ilishida ham fermer va dehqon xo'jaliklari, shaxsiy tomorqa er egalarning faoliyati tanqid va tahlil ruhida o'rganilib, bu borada amalga oshirilishi zarur bo'lgan muhim ustuvor vazifalar belgilandi. Shu asosda 26 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining "G'alla hosildorligini oshirish va aholi tomorqalaridan samarali foydalanish holatini o'rganishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qaror ijrosini ta'minlash uchun Oliy Majlis Senati raisi Nig'matilla Yo'ldoshev va qo'mitalar raislari, senatorlar boshchiligida mamlakatimizning barcha hududlari, xususan, Farg'ona viloyatida ham bu boradagi ilg'or tajribalar, yutuq va muammolar jiddiy o'rganilyapti. Yuzma-yuz muloqotlar jarayonida bildirilgan amaliy taklif, muammoli masalalar tegishli mutasaddi tashkilotlar rahbarlari ishtirokida muhokama qilinib, hududiy "Yo'l xaritalari" ga kiritilyapti, amaliy tavsiyalar berilyapti.

Ta'kidlash joizki, bevosita viloyat hokimligi qo'llab-quvvatlashi bilan olib borilayotgan izchil sa'y-harakatlar natijasida bugungi kunga qadar viloyat miqyosida tomorqasidan to'liq foydalanmayotgan 7572 ta xonadon egalarga birinchi marta ogohlantirish xatlari bilan murojaat qilindi,-deydi Farg'ona viloyati fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashi raisi Furqat Ashurov. - O'z navbatida tomorqasiga eksportbop ekin turlarini joylashtirish bo'yicha ko'mak so'ragan 41,5 mingdan ziyodroq xonadon egalarga amaliy yordam ko'rsatildi.

Viloyat bo'yicha xatlov natijasiga ko'ra 622 ming 924 ta dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalarning 41 ming 39 gektar ekin maydonlarida tuman hamda shahar hokimlarining qarorlariga asosan 2018 yil hosili uchun turli ekinlar joylashtirildi. Ekinlarning joylashuvidan kelib chiqib etishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining oila ehtiyoji, ichki bozor va eksportga etkazib berish bo'yicha aniq hisob-kitoblar ishlab chiqildi.

Hozirgi kunda viloyatdagi 191 ming 567 ta dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalarning 11 ming 268 gektar maydonida etishtirilgan to'qsonbosti ekinlari hosilini yig'ib-terib olish ishlari amalga oshirilmoqda. Shuningdek, salkam 14 ming gektar maydonda ertaki ekin ekilishi rejalashtirilgan 247 mingdan ortiq xonadonlarda ekinlar to'liq ekilgan va bugungi kunda dastlabki hosilni yig'ishtirib olishga kirishildi. Kuz va bahor mavsumida viloyat miqyosida 9500 ta dehqon xo'jaliklari va aholi xonadonlarida 2 sotixli arzon texnologiyali issiqxonalar barpo etilishi rejasining bahorga mo'ljallangani 82,7 foizga qurib bitkazilib, to'liq ekin ekilishi ta'minlandi.

Ayni kunlarda 321 mingdan ko'proq aholi tomorqalarining 29 ming 771 gektar er maydonida o'rtaki ekinlar ekish uchun er tayyorlash ishlari sifatli bajarilyapti. Buning uchun ularga urug'lik va ko'chatlarni etkazib berish rejasi ishlab chiqilib, akademik M. Mirzaev nomli ilmiy-tadqiqot institutining Farg'ona filiali

hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qiluvchi eksportyorlar tomonidan tizimli asosda etkazib berilmoqda.

Quvasoy shahri va 14 ta tumanda "Tomorqachi xizmat" MCHJlari tuzish bo'yicha tadbirkorlar o'rtasida tanlov o'tkazilib, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarini tashkil etish va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish ishlari to'liq nihoyasiga etkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati qo'mitasi raisining o'rinbosari Tolibjon Madumarov boshchiligidagi ishchi guruhi a'zolari ushbu sohada Rishton tumanida olib borilayotgan ishlar bilan batafsil tanishishdi. Tumanning Uzunko'cha, Bo'ston MFYlari aholisi bilan samimiy suhbatlar o'tkazib, tomorqadan foydalanish borasidagi ibratli tajribalari e'tirof etildi. Uzunko'cha MFYning Mezon ko'chasi, 28-uyida istiqomat qiluvchi Mamasharif Umarovlar oilasida 6 sotixli issiqxona barpo etilgan. Bir yilda erdan o'rtacha uch marotaba hosil oladigan oila a'zolari birgina bahorgi ekinlar - bodring, pomidor va achchiq qalampirdan o'rtacha 25 million so'm daromad olishni rejalashtirishyapti. Umuman olganda, hududdagi 840 ta xonadonda yashovchi 4,5 ming aholining 95 foizi tomorqadan samarali foydalanib kelmoqda.

Shu kuni mazkur mahallalar aholisi va yangi tashkil etilgan "Rishton tomorqa xizmati" MCHJ o'rtasida urug' etkazib berishdan tortib, mahsulotni ichki bozorga sotish va eksportga yo'naltirishgacha bo'lgan barcha jarayonlarga ko'maklashish bo'yicha hamkorlik kelishuvlariga erishildi. "Rishton tomorqa xizmati" MCHJ rahbari Botirjon Oripovning qayd etishicha, qisqa vaqt ichida 1000 tonnali zamonaviy muzlatgichli omborxonalar qurib bitkazildi. Aholiga ko'chatlar etkazib berish uchun bir necha issiqxonalar barpo etildi. Uyma-uy yurib xizmat ko'rsatish maqsadida bir necha yangi texnikalar sotib olinyapti. Konserva, meva quritish va qadoqlash sexlarini bunyod etish rejalashtirilyapti. Ayni kunlarda tomorqa egalari uchun imtiyozli kreditlar ajratish bo'yicha tijorat banklari bilan hamkorlik ishlari olib borilmoqda.

Tuman aholisi tasarrufida 65 ming gektar tomorqa eri mavjud,-deya suhbatimizni davom ettiradi xalq deputatlari

Rishton tuman Kengashi deputati Zokirjon Zohidov. - Bu borada olib borilayotgan keng ko'lamli tushuntirish-targ'ibot ishlari o'z samarasini bermoqda. Misol uchun, Bo'ston MFYda o'z faoliyatini boshlagan "Bo'ston-1" dehqon xo'jaligi qarovsiz, tashlandiq bo'lib yotgan 1 gektar erda zamonaviy issiqxonalar, mevali bog' tashkil etdi. Tashabbuskor tadbirkor No'monjon Ro'ziboevga 200 million so'm imtiyozli bank krediti ajratilib, 20 dan ortiq muqim ish o'rni yaratildi. Shu kunlarda zamonaviy innovatsion texnologiyalar keng joriy etilgan issiqxonalarda pishgan birinchi hosil xaridorlarga etkazib berilmoqda.

Rishton tumanida olib borilgan o'rganishlar jarayonida bir necha fermerlar bilan g'alla mavsumining muhim yumushlari borasida ham suhbatlar uyushtirilib, agrotexnik tadbirlarni sifatli bajarish va hosildorlik salmog'ini oshirish yuzasidan kerakli tavsiyalar berildi.

Botir MADIYOROV,

"Farg'ona haqiqati" maxsus muxbiri.

2018-04-05 10:33:10